



## DEBATES ON THE URGENT ISSUES OF HISTORICAL SCIENCE IN THE SECOND HALF OF THE 1980S

**Pirnafas Kholikulov**

*Associate Professor*

*University of Economics and Pedagogy  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Historiography, 1980s (late), contemporary debates, colonial policy, national liberation movements, jadidism, soviet ideology, glasnost period, historical truth, pre-independence scholarship.

**Received:** 04.10.25

**Accepted:** 05.10.25

**Published:** 06.10.25

**Abstract:** This article examines the discussions and debates in the field of history during the second half of the 1980s, a period marked by ideological tensions and the gradual weakening of Soviet dogma. The policy of glasnost (openness) and perestroika (restructuring) created an environment that allowed historians to reconsider previously distorted or silenced issues. Particular attention is given to the study of national liberation movements, the colonial policy of the Russian Empire, the role of the Jadid movement, and the reinterpretation of key events in Turkestan's history. The article highlights how new scholarly approaches challenged the established Soviet narratives, paving the way for more objective and truthful historiography in the years leading up to Uzbekistan's independence.

## XX ASR 80-YILLARNING IKKINCHI YARMIDA TARIX FANINING DOLZAB MUMMOLARIGA OID BAHSLAR

**Pirnafas Xolikulov**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Tarixshunoslik, XX asr 80-yillari, dolzarb muammolar, ilmiy bahs va munozaralar, mustamlakachilik siyosati, milliy ozodlik harakatlari, jadidchilik, sovet mafkurasi, oshkoraliq davri, mustaqillik oldi

**Annotatsiya:** Maqolada XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida tarix fanida yuzaga kelgan dolzarb masalalar, ilmiy bahs va munozaralar jarayoni tahlil qilinadi. Ushbu davrda sovet mafkurasining kuchli ta'siri

tarixshunosligi.

ostida tarixshunoslikning ko‘plab muammolari yuzaga chiqqan bo‘lsa-da, oshkoraliq va qayta qurish siyosati ilmiy muhitda yangi fikrlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratdi. Ayniqsa, milliy ozodlik harakatlari, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, jadidchilik faoliyati va Turkiston tarixiga oid dolzarb masalalar keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Maqolada ilmiy bahslarda ilgari surilgan yangi g‘oyalar, sovet davrida buzib talqin qilingan voqealarning qayta ko‘rib chiqilishi hamda tarixshunoslikka bo‘lgan yondashuvning tubdan o‘zgarishi jarayonlari tahliliy yoritiladi. Shuningdek, bahslar natijasida tarix fanining mustaqillik davrida haqqoniy rivojlanishiga zamin yaratgan omillar ilmiy asosda o‘rganiladi.

## РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСПИТАЛЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**Пирнафас Холикулов**

*Доцент*

*Университет экономики и педагогики*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Историография, вторая половина 1980-х годов, научные дискуссии, колониальная политика, национально-освободительные движения, джадидизм, советская идеология, период гласности, историческая истина, историография преддверия независимости.

**Аннотация:** В статье анализируются научные дискуссии и полемики, проходившие во второй половине 1980-х годов в области исторической науки. В этот период ослабление идеологического давления и политика гласности и перестройки создали условия для пересмотра ранее искажённых или замалчиваемых вопросов. Особое внимание уделено изучению национально-освободительных движений, колониальной политики Российской империи, роли джадидского движения, а также переосмыслинию ключевых событий в истории Туркестана. В статье показано, как новые исследовательские подходы бросили вызов советской историографической традиции, подготовив основу для объективного и правдивого освещения истории в преддверии независимости Узбекистана.

**Kirish.** O‘zbekiston xalqlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotini tadqiq qilish masalalari mamlakat tarixshunosligida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrn iilmiy asosda o‘rganish ishlari O‘zbekiston fanlar akademiyasi Tarix instituti tashkil etilgan dastlabki yillardan boshlangan. Ayniqsa, mazkur institut qoshida tashkil etilgan maxsus bo‘limning faoliyati o‘sha davr voqealarini ilmiy tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, dastlabki yillarda unga E.V. Bunakov va M. Vahobov rahbarlik qilgan. 1964-1996-yillarda esa bu bo‘limni taniqli olim H. Ziyoyev boshqargan. H.Ziyoyevning qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati, asosan, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston o‘lkasida yuz bergan jarayonlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Bo‘lim faoliyati davomida ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda tarixiy yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash masalalariga ham katta e’tibor qaratildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga oid tarixni xolisona o‘rganish sovet davrida oson kechmagan. Sababi, sovet mafkurasi ko‘plab hollarda Rossiya imperiyasining Turkistonda olib borgan mustamlakachilik va shovinistik siyosatini davom etirgan, natijada bu masalalarni ochiq yoritish istalmagan.

Asosiy qism. Mayjud hukmron mafkura tarixiy jarayonlarni bolsheviklar siyosati va ideologiyasi doirasida talqin etishni talab qilar, imperiya hukumatining Turkistondagi faoliyatini rasmiy andozalar asosida ko‘rsatishga intilar edi. Shu bois tarixchilar uchun voqealarni haqqoniy va xolisona yoritish imkoniyatlari cheklangan, mustamlakachilik siyosatining mohiyati ko‘pincha e’tibordan chetda qoldirilgan. Shunga qaramay, mazkur bo‘lim olimlari o‘z ilmiy izlanishlarida tarixiy jarayonlarni imkon qadar chuqurroq ochib berishga intilgan va bu borada muhim ilmiy meros qoldirganlar.

Shunga qaramay, tarixchilar va olimlar O‘zbekistonning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi tarixini yoritishda sezilarli ilmiy yutuqlarga erishdilar. Sobiq sovet davrida yetarlicha tadqiq qilinmagan masalalar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ma’muriy-boshqaruv tizimi, mustamlakachilik siyosatining mohiyati hamda unga qarshi milliy ozodlik harakatlari – mustaqil izlanishlar natijasida keng ko‘lamda o‘rganildi. Bu jarayonda ko‘plab arxiv manbalari ilmiy muomalaga kiritildi va tarixshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlar manbaiga aylandi. Tadqiqotlar Turkistonning turli viloyatlari misolida amalga oshirilib, minglab tarixiy faktlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar keyinchalik fundamental ilmiy asarlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston tarixining ko‘p jildli nashrlari tarkibida mazkur davr voqealari aynan shu olimlar tomonidan mukammal tadqiq etilgan.

Tarix instituti tashkil etilgan dastlabki yillardanoq olimlar “O‘zbekiston tarixi”ning ko‘p jildlik umumlashtirilgan birinchi nashrini tayyorlash ustida izchil ish olib borgan edilar. Bu

jarayonda Ikkinchı jahon urushi yillarda O‘zbekistonda faoliyat yuritgan rus olimlari – S. V. Baxrushin, A. K. Borovkov, Y. V. Gote, V. I. Pichata, E.V. Bunakov, O. A. Suxareva, V. A. Shishkin, I.K. Dodonov, T. I. Raynova, A. K. Pisarchik, V. G. Nichkina va A. A. Semyonovlarning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning faol ishtiroki, ayniqsa, milliy ilmiy kadrlar yetarli bo‘lmagan sharoitda, respublikada tarixshunoslik matabining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Natijada, mazkur davr tarixini o‘rganishga oid ilmiy meros boyidi, metodologik asoslar kengaydi hamda milliy tarixshunoslikda mustamlakachilik davri masalalarini chuqur va xolisona yoritishga imkon yaratildi. Shu tariqa, ilmiy izlanishlar natijalari nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim manba va tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuni e‘tirof etish lozimki, mazkur mualliflar mavjud chekllov larga qaramay, qo‘yilgan masalalarni imkon qadar xolis yoritishga intildilar. Jumladan, Rossiya imperiyasining Turkiston xonliklarini bosib olishi, 1892, 1898 va 1916-yillardagi xalq qo‘zg‘olonlarining milliy ozodlik kurashi sifatidagi mazmuni ilmiy nashrlarda nisbatan haqqoniy yoritilgan. Shu bilan birga, jadidchilik harakati siyosiy sabablar tufayli salbiy talqin qilinib, noto‘g‘ri baholanganini ham ta’kidlash lozim.

Sovet mafkurasi davrida tarix fanining keskin siyosiylashtirilishi natijasida ko‘plab muhim voqealarning asl mohiyatini yoritish imkoniyati deyarli mavjud emas edi. Ayniqsa, 1950-yillarga kelib tarixshunoslik ustidan mafkuraviy nazorat kuchaydi, bu esa tarixiy jarayonlarni soxtalashtirish jarayonining jadallahuviga olib keldi.

Bunga yaqqol misol sifatida 1958-yilda o‘tkazilgan “O‘rta Osiyoni Rossiyaga qo‘shib olinishning progressiv ahamiyati” mavzusidagi qo‘shma ilmiy sessiyani tilga olish mumkin. Unda Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy bosib olish siyosiy “ixtiyoriy qo‘shilish” sifatida talqin qilindi va bu g‘oya ilm-fanga majburan singdirildi. Vaholanki, bu soxta uydirmani inkor etuvchi manbalar va dalillar mavjud bo‘lsa-da, hukmron mafkura uni “davlat ahamiyatiga molik ilmiy haqiqat” sifatida tasdiqlashni talab qildi.

Natijada, sovet tarixshunosligi O‘rta Osiyoning kolonial davrini to‘liq va haqqoniy yoritishdan yiroqlashdi. Tarixiy voqealarning asl mohiyati ko‘pincha mafkuraviy andozalarga moslashtirilib, ilmiy izlanishlar siyosiy talablardan chetga chiqmasligi qat‘iy nazorat ostida saqlandi. Bu esa nafaqat Turkiston xalqlarining tarixiy taraqqiyotini buzib ko‘rsatishga, balki ularning milliy ozodlik harakatlarini to‘laqonli baholash imkoniyatining cheklanishiga ham sabab bo‘ldi.

**Natija va muhokamalar.** Sovet mafkurasi ta'siri ostida tarixiy jarayonlarni talqin qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu jarayon ko'p jildli "O'zbekiston SSR tarixi" asarining qayta ishlab chiqilgan ikkinchi nashrida o'z aksini ham topdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda faoliyat yuritgan rus olimlari tomonidan yaratilgan "O'zbekiston xalqlari tarixi" asarida Rossiya tarixchilari tomonidan tan olingan haqiqatga qaramay, hukmron mafkura ularni inkor etdi. Xususan, "urushib olinishi" kabi atamalar mafkuraviy sabablarga ko'ra "qo'shib olinishi" iborasi bilan almashtirildi. Bu esa o'zbek xalqining Vatan mustaqilligi uchun olib borgan kurashlarini yashirish va ularning mazmunini soxtalashtirishga qaratilgan edi.

1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni rasmiy tarixshunoslikda "reaksion hodisa" sifatida talqin qilindi va qora bo'yoqlarda yoritildi. Umuman olganda, "O'zbekiston SSR tarixi"ning 1956-yilgi nashrida chor hukumatining mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosati yumshatilib, uning o'rniga Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan bosqinlarning "progressiv ahamiyati" ta'kidlandi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoritishda ham mafkuraviy tazyiq yaqqol sezildi. Mustamlaka zulmiga qarshi xalq harakatlari ilmiy jihatdan milliy ozodlik kurashlari sifatida emas, balki kambag'al tabaqaning boylarga qarshi sinfiy kurashi sifatida talqin qilindi. Bu esa voqealarning asl mohiyatini to'liq anglash imkonini bermadi, balki ayrim hollarda ularni butunlay qoralashga ham urinishlar kuzatildi.

1954-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining Fanlar akademiyalari hamda SSSR Fanlar akademiyasi hamkorligida o'tkazilgan ilmiy sessiya bunga yorqin misoldir. Unda Rossiya imperiyasiga qarshi xalq qo'zg'oloni, jumladan, 1916-yildagi Jizzax qo'zg'oloni "reaksion harakat" sifatida qoralandi. Mazkur sessiyadan so'ng 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonini ham qoralash siyosiy jarayon sifatida davom ettirildi.

1966-yilda milliy ozodlik harakatlari va jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy anjumanda 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni yuzasidan keskin bahs-munozaralar yuzaga keldi. Natijada qo'zg'olon Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan chinakam milliy-ozodlik harakati sifatida qayta baholandi. Shu bilan birga, anjumanda jadidchilik harakati faoliyati ham muhokama qilinib, uning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga xizmat qilgan sog'lom yo'nalishi ijobiy talqin qilindi.

1980-yillarning oxiri va 1990-yillar boshida Tarix institut ilmiy muhitida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Sovet tarixshunosligida hukmron bo'lib kelgan qarashlarga mutlaqo zid fikrlar bildirilishi, erkin bahs-munozaralarning kuchayishi ushbu davrga xos jarayon edi. Biroq oshkorlik siyosati bergen imkoniyatlardan noto'g'ri foydalanish holatlari ham kuzatildi.

Masalan, 1987-yilda matbuotda Andijon qo‘zg‘olonini yana bir bor salbiy talqinda, qoralash ruhida yorituvchi maqola chop etildi.

Bunga javoban, 1988-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tashabbusi bilan Qozog‘iston va Qirg‘iziston olimlari ishtirokida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari tarixiga bag‘ishlangan umumittifoq ilmiy konferensiya tashkil qilindi. Unda akademik H. Ziyoyev asosiy ma’ruza bilan qatnashib, 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonining asl mohiyatini ochib berdi va uni mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik kurashi sifatida asoslab berdi. Anjuman davomida olimlarning o‘zaro fikr almashuvlari natijasida qo‘zg‘olonning tarixiy talqini qayta tiklandi va ilmiy jamoatchilik tomonidan milliy ozodlik harakati sifatida e‘tirof etildi.

1989-yilda sovet hokimiyati davrida Turkistonda joriy etilgan “Yangi iqtisodiy siyosat” masalalariga bag‘ishlangan Respublika miqyosidagi ilmiy anjuman tashkil etildi. Mazkur anjuman tarixshunoslik uchun muhim burilish nuqtasi bo‘lib, unda ilk bor mazkur siyosatga mutlaqo yangicha nuqtai nazardan baho berildi. Olimlar ushbu siyosat o‘z davridagi og‘ir iqtisodiy inqiroz sharoitida xalq xo‘jaligini qisman barqarorlashtirganini va aholining moddiy ahvolini yengillashtirishga ma’lum darajada xizmat qilganini ta’kidlashdi.

Mazkur davrning o‘ziga xos jihat shundan iborat ediki, oshkoraliq siyosati tufayli tarixiy voqealarni qayta ko‘rib chiqish uchun ilmiy jamoatchilikda nisbatan imkoniyatlar yaratildi. Shu bois, avvalgi yillarda siyosiy mafkura ta’sirida buzib ko‘rsatilgan ko‘plab tarixiy jarayonlarga nisbatan xolis va yangicha qarashlar ilgari surila boshlandi. Jumladan, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga harbiy tajovuzi, uning mustamlakachilik siyosatining turli sohalardagi ko‘rinishlari hamda jadidchilik harakatining tarixiy mohiyati haqida yangidan ilmiy bahslar avj oldi.

Mazkur ilmiy jarayonlar nafaqat Turkiston tarixshunosligida, balki butun Markaziy Osiyo bo‘yicha milliy uyg‘onish g‘oyalari, ozodlik kurashlari va mustamlakachilikning haqiqiy mohiyatini yoritishda muhim poydevor vazifasini o‘tadi.

1990-yilda Tarix instituti tashabbusi bilan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston olimlari ishtirokida “Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman tashkil etildi. Mazkur anjumanda professor H. Ziyoyev tomonidan o‘qilgan ma’ruza asosiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. U o‘z nutqida O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasiga “qo‘sib olinishi” haqidagi atama tarixiy haqiqatga zid ekanini ilmiy asoslarda ochib berdi. Olimning fikricha, arxiv hujjatlari va manbalar aniq dalillar bilan o‘lkaning “bosib olinganligi”ni isbotlab turibdi. Mazkur yondashuv ilmiy anjuman ishtirokchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va tarixiy haqiqat sifatida tan olindi. Ushbu ilmiy xulosalar keyinchalik respublika ilmiy jurnallari hamda ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilindi.

Mazkur davrda sovet hokimiyatining agrar siyosati ham qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Jumladan, tarix fanlari doktori R. Aminova tomonidan kolxozlashtirish siyosati tanqidiy jihatdan tahlil qilinib, ushbu siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga xolis baho berildi. U o‘z tadqiqotlarida kolxozlashtirish jarayonlari ko‘plab ijtimoiyadolatsizliklar, majburiylik va iqtisodiy inqirozlarga sabab bo‘lganligini ko‘rsatdi. Shu tariqa, sovet davrida siyosiy sabablar tufayli to‘liq ochib berilmagan masalalar tarixshunoslikda ilmiy ob’ektivlik tamoyillari asosida qayta talqin qilina boshladi.

1990-yillarning dastlabki bosqichlarida O‘zbekiston tarixshunosligida ilgari ochib berilmagan yoki turli mafkuraviy sabablarga ko‘ra buzib talqin qilingan masalalarni qayta o‘rganishga ehtiyoj keskin ortdi. Shu munosabat bilan Tarix instituti faoliyatida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi: institutning tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi, yo‘nalishlari kengaytirildi va har bir tarixiy davr bo‘yicha maxsus ilmiy guruuhlar tashkil etildi. Barcha ilmiy salohiyat tarixiy haqiqatni tiklash, xolis ilmiy tahlilni amalga oshirishga yo‘naltirildi. Mazkur davrda bo‘lim xodimlari “Rossiyaning Turkistondagi ilmiy siyosati”, “Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari”, “1917–1924-yillarda Turkiston tarixi” kabi mavzularda tadqiqot ishlarini olib bordilar.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi mamlakat tarixshunosligida yangi davrni boshlab berdi. Eng avvalo, kommunistik partiya mafkurasi hukmronligi tugatildi, natijada erkin fikrlash va ochiq so‘zlash imkoniyati yuzaga keldi. Shu davrdan boshlab tarixni haqqoni, xolisona va ilmiy asosda qayta yoritish davr talabi sifatida qaraladigan bo‘ldi. Bu esa tarixchilar uchun ilgari tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada keng va cheksiz imkoniyatlar ochdi.

**Xulosa.** Mustaqillik yillarda olib borilgan tadqiqotlar orasida Rossiya imperiyasining Turkistonda amalga oshirgan paxta yakka hokimligi siyosatini ilmiy jihatdan tahlil qilish alohida o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqotlarda arxiv hujjatlariga asoslangan holda imperiya metropoliyasining iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlab, butun Turkiston qishloq xo‘jaligini paxtachilikka ixtisoslashtirilganligi ochib berildi. Shu jarayonda dehqonlarning mashaqqatli mehnati, og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va yakka hokimlik siyosatining mintaqasi iqtisodiga yetkazgan salbiy oqibatlari ilmiy asosda yoritildi.

Birinchi bor juda keng qamrovli arxiv manbalari asosida olib borilgan ushbu tadqiqotlar paxta yakka hokimligi siyosatining mohiyatini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Ular orqali Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi ilmiy asosda ochib berildi. Natijada

tarixshunoslikda ilgari usti yopiq qolgan yoki buzib ko'rsatilgan masalalarining asl mohiyati aniq dalillar asosida tiklandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (18-20-asr boshlari), -T., 1998.
2. Istiqlol ma'naviyat negizi, -T., 1999.
3. Tarix – o't mish va kelajak, -T., 2000.
4. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi, T., 2001.
5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi 50 yil. –Toshkent: «Fan», 1993. -246 b.
6. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана (монография). – Ташкент, «YANGI NASHR» нашриёти, 2012. -231 б.
7. Oqilov. K.O. Sovet O'zbekistonida ilm-fan va madaniyatning ravnaqi. –T.: O'zbekiston, 1985. –B.19.